

XOTIRALARDA YASHAYDIGAN BUVIM...**Usmanova Dinora G'ulomjon qizi**

Har gal buvim haqida o'ylasam, u kishining qaynoq tabassumi, menga yoqadigan nigohlari hayolimda gavdalanadi. Ularning bag'rida o'tgan har bir lahzam men uchun unutilmas onlar bo'lib qolgan. Odamzod bir kun kelib yaqinlarini yo'qotishini bilsa-da, ularsiz hayotini tasavvur qilishi qiyin, zero issiq jon borki, kun kelib bu dunyoni tark etadi, bu barchamizga ayon. Buviming yo'qligiga ancha vaqt bo'ldi, lekin u kishining mehri va duolari hayot yo'limni hamon chiroq kabi yoritib turibdi. "Yo'qotganingni yo'qlab topolmaysan" deganlaridek, buvim hayot bo'lmagan kundan boshlab, qadrini yanada chuqur his qila boshladim.

Rahmatli buvim bilan juda oz yashagan bo'lsam-da, o'sha qisqa vaqt ichida birga o'tkazgan deyarli har bir vaqtim bugungidek yodimda. Bir kuni biz uyda ikkimiz qolgan edik va men oyimga boraman deb harhasha qildim, shunda buvim menga bir stakan sut ichirib, qornimni to'yirdida qarindoshlarimiznikiga aylantirib keldi. Men qarindoshimizni nevaralari bilan o'ynab "Oyi",-deb yig'laganlarimni ham tezda unutganman. Buvimni mahallamizda deyarli barcha tanir edi, hatto ulardan turli xil ovqatlarni pishirishni o'rgangan qizlar ham yo'q emas. Men esa ulardan huddi buvim o'rgatgani kabi manti va turli xamirli ovqatlarni tugishni o'rgandim. Ammamning aytishi bo'yicha, u kishi har doim bobobni dasturxon bo'yida kutib o'tirgan ekanlar. Bobom ishdan kelmaguncha ovqatlanmagan ekanlar. Ular nafaqat mehribon balki hammani hurmat qiladigan inson bo'lganlar. Buvim men va katta ukamni har doim qo'ltiqlab ko'tarib yurganlar. Buvijonim nabiralari ichida eng ko'p vaqtini men bilan o'tkazganligi menga shu kungacha quvonch bag'ishlab kelgan. Esimda har safar harhasha qilganimda meni ovutib, chalg'itish uchun aylantirib kelar edi.

Buviming bir doirasi bo'lar edi, biz u doirani hozirgacha ko'z-qorachig'imizdek asrab-avaylab kelimiz. U buvimning qanchalik mehridaryo ekanliklarini bizga eslatib turadi. "Mehr ko'rgan mehr beradi", deb bejizga aytishmagan. Men ham buvimga o'xshab mehribon inson va ularning mehribon nabirasi bo'lishga harakat qilaman. Mana, buvimsiz o'n to'rt yil ham shamol sayin tez o'tibdi. Yaqinda buvijonisining "erkatoy nabirasi" maktabni ham bitirish arafasida. Qizaloqning katta hayotga qadam qo'yishiga ham oz fursat qoldi. Uning orzularidan biri yetuk jurnalist bo'lib, kasbini fidoiylaridan bo'lish. Afsuski, ko'pchilik bu kasb sohibasi bo'lishimga qarshilik bildiradi. Ammo buvim hayot bo'lganida, meni har tomonlama qo'llab-quvvatlar edi. Har ishda bir hayr bor, buyog'i peshonadan. Muhimi, meni samolarda duo qilib, qo'llab-quvvatlaydigan farishtadek buvijonim bor.

DIYDOR QOLDI QIYOMATGA BUVIJON...

Bu dunyoda topilmadi sizdek zot,
Hech ko'rmadim sizdan ko'rgan mehrni.
Omonatim, ishonganim ulug' Zot,

Topolmadim uchib ketgan buvimni.

Dunyolarga sig‘may ketgan sizmisiz?
Kapalakdek qanot yozgan sizmisiz?
Orzulari ushalmagan beg‘ubor,
Endi qachon buvi deymiz biz sizni?

Ko‘p ko‘rdimi bu besh kunlik dunyo sizni?
Bir umrga tark etdingiz endi bizni.
Bolalarin orqasida qoldirgan,
Topolmadim farishtadek buvimni.

Bizga armon endi sizni bir ko‘rish,
Qay burchakdan endi sizni izlaylik.
Allohimga omonatim mehribon,
Diydor qoldi qiyomatga buvijon.